

MUSTAQIL TA'LIMDA TO'GARAK MASHG'ULOTLARI O'RNI

G'ofurova Ma'mura

Mustaqil tadqiqotchi

To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida, avvalambor, ona Vatanga, ona tiliga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat hislarini shakllantirishga katta ahamiyat qaratilishi zarur. Bunda o'quvchilarga quyidagi qadriyatlarni singdirishga katta e'tibor qaratiladi:

o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga – Vatanga, uning tarixi va ona tiliga muhabbat, ajdodlar xotirasiga sadoqat, mehmonga, o'zidan kattalarga va eng muhimi ustozlarga ehtirom, o'zidan kichiklarga izzat-ikrom, ayniqsa ota-ona, qarindosh-urug'larga doimiy samimiy hurmat va xizmat ko'rsatish, imkoni boricha yordamga muhtojlarga ko'mak berish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, milliy an'ana va urf-odatlarini hurmat qilish, milliy va diniy jihatlardan bag'rikeng, atrof-muhitni ozoda saqlash, maktabni muqaddas dargoh deb bilish, belgilangan tartib va qoidalarga doimo amal qilish va boshq. Bundan tashqari, o'quvchilarda irodalilik, mafkuraviy immunitet, halollik, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, burchga sadoqat, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilishi kerak.

Yuqori sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida inobatga olinishi zarur bo'lgan jihatlar quyidagilardan iborat:

kelajakka ishonch, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash;

mamlakatda jadal sur'atlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish;

vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbiy-ma'naviy ko'nikmalarni



o‘rgatish, halol mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish;

mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsion tafakkur, tashabbuskorlik, fidoyilik fazilatlarini rivojlantirish;

oilaviy burch, oilada o‘zaro ishonch, sadoqat, mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlash malakalarini shakllantirish, ma’naviy barqarorlikni ta’minlash;

yoshlar, yosh ota-onalarda farzand tarbiyasi uchun mas’ullik, oilani oqilona va odilona boshqarish, moddiy va ma’naviy farovonlikka erishish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

Teleradiokanallarda ezgulik tarbiyasi mavzularida ko‘rsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda “Ibrat maktabi”, “So‘rang! Javob beramiz, o‘rgatamiz” ruknida axborot almashinuvini tashkil etish.

5-sinflarda tashkil qilinadigan to‘g‘arak mashg‘ulotlarida e‘tibor ko‘proq grammatikaning morfologiya qismiga qaratiladi. Bu sinfda o‘quvchilar morfologiyani quyidagi mavzular asosida o‘rgana boshlaydilar¹².

5-sinfda ona tili darsida o‘quvchilar so‘z turkumlari, “So‘z turkumlari” tushunchasining izohi, mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari haqida umumiy ma’lumot, otlar, turdosh va atoqli otlar, kelishik qo‘shimchalari, egalik qo‘shimchalari, sifatlar, sifat darajalari, sonlar, sonlarning yozilishi, olmosh so‘z turkumi haqida tushuncha, fe’llar, fe’l zamonlari, o‘tgan zamon, hozirgi zamon, shaxs-son qo‘shimchalari, ravishlar guruhiga mansub so‘zlar haqida tushuncha mavzulari bilan tanishadilar. SHuningdek, yordamchi so‘z turkumlari va ularning gapdagi vazifasi, bog‘lovchilar, ularning vazifalari va yozilishi, ko‘makchilar, ularning ma’no-vazifalari va yozilishi, yuklamalar, ularning ma’no xususiyatlari va imlosi, yuklamali gaplarning ohangi, yuklama-qo‘shimchalar, so‘z-yuklamalar, ularning vazifasi, ma’nosi, imlosi va ohangi ustida ishlash, yuklamalar haqida umumlashma hosil qilish, mustaqil va yordamchi so‘zlar yuzasidan takrorlash,

¹² Фузайлов С., Худойберганова М., Йўлдошева Ш. Она тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019.



undov va taqlid so‘zlar, so‘zning tuzilishiga ko‘ra turlari, qo‘shma so‘zlar, bir asosli va ko‘p asosli so‘zlar haqida tushuncha, ularning qiyosiy tahlili. «Ot+fe‘l» tuzilishli qo‘shma otlar, ularning ma‘nolari, yozilishi, qo‘shma otlar yuzasidan xulosa chiqarish, juft so‘zlar ustida ishlash, ma‘nosini izohlash, ularga ma‘nodosh so‘zlar va so‘z birikmalari tanlash, juft so‘zlar izohi, juft so‘zlar imlosi, takror so‘zlar bilan ishlash, matn tahlili asosida takror so‘zlar ma‘nosini izohlash, takroriy so‘zlar sharchi va imlosi, qisqartma so‘zlar, ularning hosil qilinishi va yozilishi hamda mustaqil so‘zlar va yordamchi so‘zlar bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsadida takrorlash berilgan.

6-sinflar uchun tashkil qilinadigan to‘garak mashg‘ulotlarida esa 6-sinf ona tili fanidan o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta‘lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O‘quv dasturida o‘quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetentsiyalarni hamda tayanch kompetentsiyalarning elementlarini shakllantirish ko‘zda tutilgan hamda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari ona tili ta‘limida o‘rganilgan o‘quv materiallarning akademik litsey va kasb-hunar kollejlari aynan takrorlanmasligi, o‘quvchilarning yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlari, umumiy o‘rta ta‘lim tayyorgarligiga mos kelishi hamda grammatik materiallarni asta-sekin, oddiydan murakkabga tomon borish tamoyiliga asoslanishi e‘tiborga olingan. Shuningdek, ona tili chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini takomillashtirish, ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish, o‘quvchilardagi qobiliyat va iste‘dodni yanada kamol toptirish uchun ixtisoslikka yo‘naltirilgan o‘quv dasturi kompetentsiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturiga moslashtirildi. Bunda o‘quvchilar so‘z tarkibi, asos va qo‘shimchalar, qo‘shimchalar tasnifi, so‘z yasovchi qo‘shimchalar, tub va yasama so‘zlar, shakl yasovchi qo‘shimchalar va ularning tasnifi, so‘z tarkibida tartib, fe‘l, ot, otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari, sifat, sifatlarning yasalishi, son, ularning umumiy belgilari va vazifalari, ravish, ravishlarning yasalishini o‘rganadilar.



7-sinf o‘quvchilari uchun tashkil qilingan to‘garaklarda o‘quvchilar so‘z turkumlaridan olmosh so‘z turkumi va uning tasnifi, so‘zlarning munosabat shakllari, sof ko‘makchilar, vazifadosh ko‘makchilar, bog‘lovchilar, bog‘lovchilarning vazifasiga ko‘ra turlari, yuklama haqida ma‘lumot, sof va vazifadosh so‘zlar haqida ma‘lumotga ega bo‘ladilar. Shuningdek, 6-7-sinf ona tili o‘quv dasturlarida o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan fanga oid kompetensiyalar ko‘rsatib o‘tilgan. Masalan, 6-sinf o‘quvchisi “Fe‘l so‘z turkumi” mavzu doirasida fe‘l so‘z turkumi va nisbatlarini izohlay olish, ajrata olish, o‘rganilgan ifoda vositalaridan nutqda o‘rinli foydalana olish kabi morfologik kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, 7-sinf o‘quvchilari mustaqil va yordamchi so‘z turkumlarini farqlash, matnni so‘z tarkibi (asos va qo‘shimchalar) va so‘z turkumi (fe‘l, ot, sifat,son, olmosh, ravish, bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama, undov, modal, taqlid so‘zlar) yuzasidan tahlil qila bilish, so‘z turkumlaridagi grammatik shakllarga xos shakldoshlik, ma‘nodoshlik, zid ma‘nolilik hodisalarini nutq jarayoniga tatbiq qilish, kelishik qo‘shimchalarini o‘rinli qo‘llay olish, fikrni turli tarzda ifodalashda fe‘lning zamon, shaxs-son, mayl, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, nisbat shakllaridan, o‘timli-o‘timsiz, ko‘makchi fe‘llardan unumli foydalanish, nutq vaziyatida olmosh so‘z turkumini fe‘l, ot, sifat, son, ravish o‘rnida to‘g‘ri qo‘llash orqali uslubiy izchillikka erishish, yordamchi so‘zlar, undov, taqlid, modal so‘zlardan nutq shakllarida maqsadli foydalanish asosida nutqiy ta‘sirchanlikka erishish kabi morfologik kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak.

Ona tilini o‘rganish jarayonida oldingi o‘tilganlarga tayanib, yangi tushunchalarni o‘rganish, guruhlariga ajratish, qiyoslash, umumlashtirish orqali o‘zi mustaqil ta‘rif chiqarishga o‘rgangan o‘quvchi bir-biriga o‘xshash va farqli hodisalar ustida ishlaydi, o‘qituvchi yordamida xulosa va hukm chiqaradi. Mashg‘ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish, qo‘yilgan muammo, savol,

topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, o‘quv jarayonini boshqarish¹³ yosh avlodda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi¹⁴.

“Morfologiya” bo‘limi ko‘plab grammatik shakllarga egaligi bilan ajralib turadi va uni o‘qitishga alohida yondashuv talab etiladi. Bu bo‘limni o‘rgatish jarayonida so‘z tarkibi bo‘yicha tahlil amalga oshirib borilgandagina o‘quvchi so‘z shakllarini anglab, bir-biridan farqlay boshlaydi. Mavzuni mustahkamlanishiga zamin yaratadi. O‘rganilayotgan so‘zning qaysi so‘z turkumiga mansubligi va uning gapdagi sintaktik vazifasi aniqlab borilishi natijasida o‘quvchilarning sintaktik bilimlari ham tobora oshib boradi. Bu esa ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shadi. Hozirgi o‘zbek tilshunosligining bugungi muammosi ham til egalari xotirasida jamlangan til faktlarining muloqot jarayonidagi tadbiquing (til kompetentligi), kommunikatsiya jarayonida tilning rolini, til va til egasi munosabatini o‘rganishdir¹⁵.

O‘quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish uchun katta imkoniyatlar ona tilining grammatikasini o‘qitishni o‘z ichiga oladi, bu o‘quvchilarning umumiy bilim olishiga yordam beradi, ularni asosiy qoidalar bilan tanishtiradi, o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim – egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim bo‘lib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qiladi.

¹³ Sobirova M. Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7827423> va b.

¹⁴ Тўхлиев ва б. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: 2009. –Б 33.

¹⁵ Набиева Д. Холматова Г. Замонавий тилшуносликнинг муаммолари // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари.2016. –Б 46.



Demak, to‘garak mashg‘ulotlari o‘qituvchining topshirig‘i va rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta‘limning faol shakli ekan, qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda ilm oluvchilarning aniq faoliyatini tashkil etish va sifatli amalga oshirishni ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, 5-bo‘lim. //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997-yil 9-son.
2. Sobirova, M. (2023). Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7827423>
3. Sobirova, M. (2023). Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7827423>
4. Sobirova, M. (2022). Anthropocentric approach to language. ISJ Theoretical&Applied Science,07(111), <http://t-science.org/arxivDOI/2022/07-111.html> –P.36-39.
5. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
6. Sobirova, M. (2022). Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. <https://www.int-jecse.net/abstract.php?id=5377> International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756 /INTJECSE/V14I7.91 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages.
7. Sobirova, M. (2021). The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf> str.98-105
8. Sobirova, M. (2020). International Scientific Journal “Theoretical & Applied Science” SOI: 1.1/TAS (<http://t-science.org/arxivDOI/2020/12-92.html>) (DOI:10.15863/TAS Published: 18.12.2020.



9. Sobirova, M.Y. (2019). About the history of speech culture and art of oratory. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80), 275-277. Retrieved from: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42657439>
10. Sobirova, M.Y. (2023). The role of educational tools in anthropocentric relationship education. European Journal of Education and Applied Psychology 2023, No 4. <https://doi.org/10.29013/EJEAP-23-4-52-58>.
11. To‘xliiev va b. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: 2009. – B.233.
12. Nabiyeva D. Xolmatova G. Zamonaviy tilshunoslikning muammolari // Nutq madaniyati va o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.2016. – B 46.